

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova S.U. Markaziy Osiyo olimlarining o'rta asr Sharq ilmiy markazlarda faoliyati // O'zbekistonning islam sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi. –Toshkent – Samarqand, 2007.
2. Gulbahor Jalalova, Sharq allomalarining ilmiy merosida bilimlar integratsiyasi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. 2024-yil
3. Классическая наука Средней Азии и мировая цивилизация. –Т., 2000.
4. Очерки истории общественной философской мысли в Узбекистане. Под. красный. И. М. Муминова. –Т.: Фан, 1977.
5. Морен Э. Метод. Природа Природы. –М.: Прогресс-Традиция, 2005

OZIQ-OVQAT SANOATI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Abdiyev Nosir Raximovich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Hududiy filiallarni rivojlantirish va nazorat qilish bo'limi boshlig'i

Axmedova Nilufar Farxodovna

TATU Qarshi filiali "ATDT" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sanoat korxonalarini rivojlantirish, o`zgarib turuvchi raqobat muhiti va bozor sharoitlarida ekonometrik usullar va modellardan foydalanish yordamida makroiqtisodiy bashorat qilish, tavakkalchilik va noaniqlik sharoitida optimal iqtisodiy qarorlar qabul qilish, keyinchalik, bu qarorlar bajarilishini nazorat qilish masalalarining nazariy va amaliy tomonlarini o`rganishda juft regressiya modellashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Regressiya, modellashtirish, noaniqlik, raqamlari tving, dispersiya, tannarx, mehnat samaradorligi, ish haqi, limit, juft regressiya, ko`p omilli regressiya

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoatining rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari bir qator iqtisodiy, ijtimoiy va texnologiyaviy omillarga bog'liq bo'lib, ular mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligiga va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatiga bog'liqdir. Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni samarali yo'lga qo'yish, ichki va tashqi bozorlarni rivojlantirishga qaratilgan dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda oziq-ovqat sanoatining iqtisodiy asoslарини quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish maqsadiga muvofiq hisobланади:

-Iqtisodiy o'sish va diversifikatsiya. Oziq-ovqat sanoati milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, uning rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy o'sishiga hissa qo'shadi. Rivojlangan oziq-ovqat sanoati diversifikatsiyani ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish uchun muhim omil xisobланади;

-Investitsiyalar va texnologiyalarni modernizatsiya qilish. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish oziq-ovqat sanoatida samaradorlikni oshiradi. Investitsiyalar orqali yangi korxonalar qurish va mavjud korxonalarini modernizatsiya qilish mamlakatning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari yaratiladi;

-Iqtisodiy modellar va tarkibiy o'zgarishlar. Oziq-ovqat sanoatida talab va taklifni o'rganish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlarini iqtisodiy modellar orqali tahlil qilish sanoat rivojlanishining asosiy shartlaridan biri xisobланади;

-Oziq-ovqat xavfsizligi. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatida muhim o'rinn tutadi. Bu mamlakat aholisining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash uchun yetarli darajada mahsulot ishlab chiqarish va ularni xavfsiz qayta ishlashni talab qiladi;

-Ahолining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi. Mahsulotlarning iste'moldagi ahamiyati, aholi sonining o'sishi va ularning daromad darajasi oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning yuqori

bo‘lishi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni bozor talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishga rag‘batlantiradi;

-Ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish. Yangilangan va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Bu esa yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi va sanoatning umumiyligi rivojlanishini ta’minlaydi;

-Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar. Innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi, masalan, biotexnologiyalar, organik mahsulotlar ishlab chiqarish va qayta ishslash usullarining rivojlanishi, mahsulotlarning sifatini oshirish va bozorlardagi raqobatbardoshlikni ta’minlaydi;

-Suv va energiya resurslaridan samarali foydalanish. O‘zbekistonda suv resurslari cheklanganligi sababli, oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlarida samarali suv va energiya sarfini ta’minalash uchun ilg‘or texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega;

-Qonunchilik bazasi. Oziq-ovqat sanoati rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asos zarur. O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bu hujjatlar sanoatdagagi xavfsizlik va sifat talablariga rioya qilishni ta’minlaydi;

-Davlat dasturlari va strategiyalari. O‘zbekiston Respublikasi hukumati oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish bo‘yicha bir qator davlat dasturlarini qabul qilgan. Bu dasturlar asosan mahsulotlarni qayta ishslash, texnologik modernizatsiya va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashga qaratilgan;

-Iqlim o‘zgarishi va oziq-ovqat ishlab chiqarishi. O‘zbekistonda oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi ko‘p jihatdan iqlim sharoitiga bog‘liq. Iqlim o‘zgarishlari, suv resurslarining cheklanganligi va yer unumdorligining pasayishi oziq-ovqat ishlab chiqarishni qiyinlashtirishi mumkin. Buni hisobga olgan holda, iqlimga mos keladigan texnologiyalardan foydalanish muhimdir.

-Ekologik barqarorlik. Barqarorlik prinsiplari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishslashga yo‘naltirilgan texnologiyalar oziq-ovqat sanoatida katta ahamiyatga ega.

-Eksportni rivojlantirish. O‘zbekiston oziq-ovqat sanoati rivojlanishida xalqaro hamkorlik va eksport potensiali katta ahamiyatga ega. Juhon bozori talablariga javob beradigan mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali O‘zbekiston o‘zining oziq-ovqat mahsulotlari eksportini kengaytirishga intiladi.

-Xalqaro standartlarga muvofiqlik. O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish xalqaro standartlar asosida tashkil etilmoqda. Bu esa mahsulotlarning juhon bozorlarida sotilishi va iste’molchilar orasidagi ishonchni oshiradi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy asoslar O‘zbekiston respublikasida oziq-ovqat sanoati rivojlanishi uchun muhim yo‘nalish, iqtisodiy modellar va texnologiyalardan iborat. Har bir yo‘nalishdagi o‘zgarishlar va rivojlanishlar sanoatning umumiyligi holatiga va mamlakatning oziq-ovqat sanoatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tarkibiy qismlar bo‘yicha respublikada va xududlar misolida mahalliy olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Shunday olimlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi, iqtisodiy fanlari doktori S.S. G‘ulomov oziq-ovqat sanoatining rivojlanishiga oid muhim fikrlar va tadqiqotlariga e’tibor qaratgan. Uning ta’kidlashicha, oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy ahamiyatga ega, balki mamlakatning umumiyligi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashda ham muhim rol o‘ynaydi. S.S. G‘ulomov oziq-ovqat sanoati sohasini samarali rivojlantirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish oziq-ovqat ishlab chiqarish sifatini oshirish va samaradorligini ko‘tarishda muhim ekanligini takidlaydi. Olimning fikricha, ilmiy yutuqlar va innovatsiyalar joriy qilinishi sanoatning kelajakdagi o‘sishiga ta’sir qiladi. Shuningdek O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan tabiiy va xom ashyo resurslarini samarali foydalanish muhimligi haqida alohida tuxtalib o‘tadi. Bu nafaqat ishlab chiqarish jarayonini arzonlashtirishi, balki mahsulotlarning mahalliy bozorda raqobatbardoshligini ham oshirishi haqidagi fikrlarini bayon etadi.

S.S. G‘ulomov odamlar sog‘lig‘ini ta’minalash uchun sanitariya va gigiyena standartlariga qilish zarurligi va bu yo‘nalishdagi nazoratni kuchaytirish kerakligi bo‘yicha takliflarni beradi.

Shuningdek mahalliy va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy tajribalarni o'rganish va ushbu sohadagi ilg'or mamlakatlar bilan hamkorlik qilish orqali sanoatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratish kerak deb xisoblaydi. U oziq-ovqat sanoatining kelajagini yuqori texnologiyalar va xalqaro hamkorlik bilan bog'laydi, bu esa mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilishi haqida o'z ilmiy ishlanishlarida bayon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni
2. Egger, P., (2002). An Econometric View of the Estimation of Gravity Models and the Calculation of Trade Potentials. *World Economy*, 25(2), 297–31
3. Determinants of FDI inflows: the case of Russian regions. *Ekonomika regiona [Economy of Region]*, 12(4), 1244–1252.
4. Ibragimov N.N. (2021, April). AN IMITATION MODEL OF THE DEVELOPMENT OF PUBLIC UTILITIES. In *Archive of Conferences* (Vol. 19, No. 1, pp. 18-20).
5. Ibragimov N.N. (2021, April). EMPIRICAL MODELING OF PUBLIC UTILITIES. In *Archive of Conferences* (Vol. 18, No. 1, pp. 19-20).
6. Ibragimov N.N. (2021, April). ECONOMETRIC MODELING OF PUBLIC UTILITIES. In *Archive of Conferences* (Vol. 20, No. 1, pp. 54-55).
7. Yusupovna Yu.M. Qashqadaryo viloyati iqtisodiy taxlili. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11li.371-374
8. Muxammadieva Yu. Yu. ECONOMIC ANALYSIS OF THE REGION'S POWER TO ATTRACT FOREIGN INVESTMENTS. *JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN*. 239-243
9. Nusriddinovich, I. N., & Ilhomkhojayevna, A. N. (2022). CYBER THREATS, VULNERABILITIES AND RISKS IN ECONOMIC SECTORS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(9), 139-140.
10. Yusupovna Yu.M. Qashqadaryo viloyati salohiyatini iqtisodiy tahli ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11li.371-374
11. Мансуров, О. П., & Адизов, Б. З. (2023). ТЕХНОЛОГИЯ ПРОИЗВОДСТВО БИОЭТАНОЛА ВТОРОГО ПОКОЛЕНИЯ ИЗ ВОЗОБНОВЛЯЕМОГО СЫРЬЯ. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАУЧНОГО И ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО, 109.
12. Muxammadieva Yu.Yu. ECONOMIC ANALYSIS OF THE REGION'S POWER TO ATTRACT FOREIGN INVESTMENTS. *JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN*. 239-243
13. Ibragimov, N., Amirov, A., & Abduraxmanov, V. (2022). AXBOROT TIZIMLARINING TAHDIDGA ZAIFLIGI. *Zamonaviy dunyoda amaliy fanlar: Muammolar va yechimlar*, 1(28), 15-18.
14. Ibragimov, N. N. (2021, April). AN IMITATION MODEL OF THE DEVELOPMENT OF PUBLIC UTILITIES. In *Archive of Conferences* (Vol. 19, No. 1, pp. 18-20).
15. Ibragimov, N. N. (2021, April). EMPIRICAL MODELING OF PUBLIC UTILITIES. In *Archive of Conferences* (Vol. 18, No. 1, pp. 19-20).
16. Ibragimov, N. N. (2021, April). ECONOMETRIC MODELING OF PUBLIC UTILITIES. In *Archive of Conferences* (Vol. 20, No. 1, pp. 54-55).